- **ConstrainedMin[f, {inequalities}, {x, u,...}]** — inequalities tengsizliklar orqali aniqlangan f funksiyani global minimumini aniqlaydi.

Bunda barcha x, u,... o'zgaruvchilar musbat hisoblanadi. Bu funksiyalar yordamida chiziqli dasturlashning masalalarini yechishda ham foydalanish mumkin.

Bundan tashqari **Linear Programming[c, m, b]** funksiyasidan ham foydalanish mumkin.

Mathematica tizimida tenglamalarni sonli va simvolli yechish uchun asosan **Solve[eqns, vars]** va **Solve[eqns, vars, elims]** nomli funksiyalar qo'llaniladi. Bu yerda, eqns - tenglamaning yoki tenglamalar sistemasini ko'rinishi; vars – o'zgaruvchilar hamda elims - shart, ya'ni o'zgaruvchilar. Bunda elims da vars o'zgaruvchilarning bir qismi, ya'ni yechimi talab qilinmaydigan o'zgaruvchilar ko'rsatiladi. Ko'rsatiladigan parametrlar vars yoki elims ro'yxat ko'rinishida yoki && simvol orqali birlashtirilgan ifodalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Tenglamalarni ifodalaydigan eqns da esa tenglik belgisi sifatida - = = belgilar ketma-ketligi ishlatiladi. Bildirilgan fikrlarni quyida keltirilgan misollarda yanada yaqqolroq tushunib olish mumkin.

Misollar:

Solve[2*x^2-5*x-10 == 0, x]

$$\left\{ \left\{ x \rightarrow \frac{1}{4}(5 - \sqrt{105}) \right\}, \left\{ x \rightarrow \frac{1}{4}(5 + \sqrt{105}) \right\} \right\}$$

Solve[{x^2+y^2+z==5, x*y+z==2,x+y+z==3}, {x, u, z}]

{ {z->0, x->2, y->2}, {z->0, x->2, y->1}, {z->3, x->1, u->1}, {z->3,x->1,y->-1} }

Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni oldini olish uchun olingan yechimlarning qiymatlarini tenglamalarga qo'yib tekshirish mumkin. Masalan, sodda va yechimi aniq bo'lgan quyidagi tenglamalar sistemasini yechish algoritmi bilan tanishaylik.

x*u=6

x^2+u=7:

eqns={x*y==6, x^2+y==7}

result=Solve[eqns,{x,y}]

{ {u->-2, x->-3}, {u->3, x->2}, {u->6, x->1} }

eqns/.result

{ {True,True}, {True,True}, {True,True} }

Bu sistemani yechganda Mathematica bir vaqtning o'zida 3 ta juftlik yechimni olishga imkon berdi. Olingan yechimlarni berilgan tenglamalar sistemasiga qo'yganimizda ayniyatga ega bo'lganimizni Mathematica **True – rost** javobi orqali isbotladi.

Differensial tenglamalarni simvolli yechish uchun, asosan, quyidagi funksiyalardan foydalaniladi:

DSolve[eqn, u[x], x] - bog'liqsiz o'zgaruvchi x bo'yicha u[x] funksiyaga nisbatan **eqn** differensial tenglamani yechimini izlaydi;

DSolve[{eqn1, eqn2, ...}, {u1[x1, ...], ...}, {x1, ...}] - differensial tenglamalar sistemasini yechadi;

Misollar:

DSolve[Derivative[1][y][x] == 2*a*x^3, u[x], x]

{ {u[x] -> — + S[1]} } 2

Dsolve[y [x]==Sin[Ex], y[x], x]

{ {y[x]->C[1]+SinIntegral[E^x] } }

Differensial tenglamalarning analitik yechimlari nafaqat elementar funksiyalarni, balki maxsus matematik funksiyalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

3. OPTIMAL BOSHQARISH MASALALARINI MAPLE PAKETI ORQALI YECHISH

MAPLE sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: iqtisodiyot, mexanika, matematika, fizika, muhandislik masalalarining analitik va sonli yechimlarini aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistemadir. Unda 4000 dan ortiq buyruqlar mavjud bo'lib, bu buyruqlar matematika fanining Algebra, Geometriya, Matematik tahlil, Matematik statistika kabi turli sohalari masalalarini hal etishga mo'ljallangan.

Mapleda ham funksiyalar bir necha usullarda beriladi:

1-usul. O'zlashtirish operatori (:) bilan tasvirlanadi, ya'ni:

> f:=sin(x)+cos(x);

$$f := \sin(x) + \cos(x)$$

Agar o'zgaruvchi x ga aniq qiymat berilsa, u holda funksiyaning shu x uchun aniq qiymatini olish mumkin. Masalan: oldingi misoldagi funksiyaning $x = \pi / 4$ nuqtadagi qiymati:

> x:=Pi/4;

$$x := \frac{\pi}{4}$$

> f;

$$\sqrt{2}$$

Bu buyruqlardan so'ng x $\pi / 4$ ni qabul qiladi.

Odatda **Maple**da barcha hisoblashlar simvolli ko'rinishda beriladi. Ba'zi irratsional o'zgarmaslarni, ya'ni e, π kabilarning taqribiy qiymatlarini **Maple**da **evalf(expr,t)** buyrug'i bilan olish mumkin. Bu erda **expr** – ifoda, **t**-aniqlilik, ya'ni verguldan keyin qatnashadigan o'nli raqamlar soni.

Masalan: oldingi misoldagi funksiyaning taqribiy qiymati quyidagicha hisoblanadi.

> evalf(%);

$$.7357588824$$

Bunda (%) simvoli oldingi buyruq natijasini chaqirish uchun ishlatildi.

2-usul. Funktsional operator yordamida, ya'ni $(x_1, x_2, \dots)$ o'zgaruvchilar to'plamini $\{f_1, f_2, f_3, \dots\}$ ifodalar to'plamiga mos keltirish yo'li bilan. Masalan, ikki o'zgaruvchili funksiyaning funktsional operator vositasida aniqlanishi quyidagicha bo'ladi:

```
> f:=(x,y)->sin(x+y);
```

$$f := \sin(x + y)$$

Bu funksiyaga murojaat qilish esa odatdagi matematik usulda amalga oshiriladi, ya'ni qavslar orasidagi o'zgaruvchilarning o'rniga ularga mos keladigan aniq qiymatlar beriladi. Oldingi holdagi funksiyaning qiymatini quyidagicha hisoblash mumkin:

```
> f(Pi/2,0);
```

1

3-usul. `unapply(expr,x1,x2,...)` buyrug'i yordamida, bunda **expr** – ifoda, **x1,x2...** – o'zgaruvchilar ketma-ketligi.

Masalan:

```
> f:=unapply(x^2+y^2,x,y);
```

$$f := (x, y) \mapsto x^2 + y^2$$

$$> f(-7,5);$$

74

Bundan tashqari, **Maple**da elementar bo'lmagan funksiyalarni ham turli usullarda aniqlash mumkin.

```
> piecewise(cond 1,f1, cond 2, f2, ...)
```

buyrug'i yordamida

$$f(x) = \begin{cases} f_1(x), & x < a_1 \\ f_2(x), & a_1 < x < a_2 \\ \dots\dots\dots \\ f_n(x), & x > a_n \end{cases}$$

funksiyanı aniqlash mumkin.

Masalan: $f(x) = \begin{cases} 0, & x < 0 \\ x, & 0 \leq x < 1 \\ \sin x, & x \geq 1 \end{cases}$ funksiyanı

> f:=piecewise(x<0, 0, 0<=x and x<1, x, x>=1, sin(x)); buyrug'i
vordamida tasvirlash mumkin.

4. OPTIMAL BOSHQARISH MASALALARINI MATLAB PAKETI ORQALI YECHISH

Zamonaviy kompyuter matematikasi matematik hisoblarni avtomatlashtirish uchun Eureka, Gauss, Derive, Mathcad, Mathematica, Maple va boshqa dasturiy tizimlar va dasturlarning to'plamlarini taklif qiladi. Ular orasida MATLAB imkoniyatlari va maxsuldorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

MATLAB — bu vaqt sinovidan o'tgan matematik hisoblarni avtomatlashtirish tizimlaridan biridir. U matritsaviy amallarni qo'llashga asoslangan. Bu narsa tizimning nomi — MATrix LABoratory — matritsaviy laboratoriyada o'z aksini topgan.

Matritsalar murakkab matematik hisoblarda jumladan chiziqli algebra masalalarini yechishda va dinamik tizimlar hamda ob'ektlarni modellashda keng qo'llaniladi. Ular dinamik tizimlar va ob'ektlarning holat tenglamalarini avtomatik ravishda tuzish va yechishning asosi bo'lib hisoblanadi. Bunga MATLABning kengaytmasi Simulink misol bo'lishi mumkin.

Lekin hozirgi vaqtda MATLAB ixtisoslashtirilgan matritsaviy tizim chegaralaridan chiqib universal integrallashgan kompyuterda modellash tizimiga aylandi. «Integrallashgan» so'zi bu tizimda qulay ifodalar va izohlar tahrirchisi, hisoblagich, grafik dasturiy protsessor va boshqalar o'zaro birlashtirilganligini bildiradi. Umuman olganda MATLAB matematikaning rivojlanishi davomida to'plangan matematik hisoblashlar bo'yicha tajribani o'zida mujassamlashtirgan va uni grafik vizuallashtirish va animatsiya vositalari bilan uyg'unlashtirilgan. MATLAB tizimi ilova qilinadigan katta hajmdagi xujjatlar bilan birgalikda EHMni matematik ta'minlash bo'yicha ko'p tomli ma'lumotnoma bildirgich (spravochnik) vazifasini bajarishi mumkin. Lekin ushbu xujjatlar hozirgi vaqtda faqat ingliz tilida va qisman yapon tilida mavjud.

MATLAB tizimini Moler (S. V. Moler) ishlab chiqqan va 70-yillarda undan katta EHMlarda keng foydalanilgan. MathWorks Inc firmasining mutaxassisi Djon Litl (John Little) 80-yillarning boshlarida IBM PC, VAX va

MATLAB tizimining vazifasi har xil turdagi masalalarni yechishda foydalanuvchilarni an'anaviy dasturlash tillariga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan va imkoniyatlari keng dasturlash tili bilan ta'minlashdir. MATLAB ning imkoniyatlari juda keng. Undan hisoblashlarni bajarish va modellash uchun fan va texnikaning har qanday sohasida foydalanish mumkin.

- matematik hisoblashlar;
- algoritmlarni yaratish;
- modellash;
- ma'lumotlarni tahlil qilish, tadqiq qilish va vizuallashtirish;
- ilmiy va injenerlik grafikasi;
- ilovalarni ishlab chiqish va boshqalar.

[illegible]

Bu yerda $x_1, x_2, \dots, x_n$ - noma'lum o'zgaruvchilar, $a_{11}, a_{12}, \dots, a_{nn}$ - haqiqiy sonlar, tenglamalar sistemasining koeffitsientlari va $b_1, b_2, \dots, b_n$ haqiqiy sonlar, tenglamalar sistemasining ozod xadlari deyiladi.

chiziqli tenglamalar sistemasining ChTS ning yechimi deb uni tenglamalarini ayniyatlarga aylantiruvchi $x_1, x_2, \dots, x_n$ sonlarga aytiladi.

chiziqli tenglamalar sistemasining chiziqli tenglamalar sistemasining ChTS ni vektor ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:

$$Ax=b \quad (2)$$

Bu yerda

$$A = \begin{bmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{bmatrix}$$

(nxn) o'lchovli matritsa,

$$x = \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \dots \\ x_n \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \dots \\ x_n \end{bmatrix}$$

(nx1) o'lchovli noma'lum vektor ustun,

$$b = \begin{bmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \dots \\ b_n \end{bmatrix} \begin{bmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \dots \\ b_n \end{bmatrix}$$

(nx1) o'lchovli ozod had deb ataluvchi vektor ustun.

$A^*=[A,b]$ -kengaytirilgan matritsani kiritamiz. Chiziqli algebra kursidan ma'lumki (Kroneker-Kapelli teoremasi) A va A^* matritsalarining ranglari teng bo'lsa (1) yoki (2) sistemaning yechimi mavjud bo'ladi.

2. chiziqli tenglamalar sistemasining **ChTS ni yechish usullari**. chiziqli tenglamalar sistemasining ChTS ni yechishning aniq usullaridan keng qo'llaniladiganlari Gauss, Kramer va teskari matritsa usullaridir, taqribiy usullarga

belgilashlar kiritib (3) ni quyidagicha yozib olamiz.

$$X = \beta + \alpha X \quad (4)$$

(4) sistemani ketma-ket yaqinlashish (iteratsiya) usuli bilan yechamiz. Boshlang'ich yaqinlashish uchun $x^{(0)} = \beta$ ozod hadni olamiz va ketma-ket keyingi yaqinlashishlarni hosil qilamiz:

$$x^{(1)} = \beta + \alpha x^{(0)};$$

$$x^{(2)} = \beta + \alpha x^{(1)};$$

.....

$$x^{(k+1)} = \beta + \alpha x^{(k)};$$

Agar $x^{(0)}, x^{(1)}, \dots, x^{(k)}, \dots$ sonlar ketma-ketligi limitga ega bo'lsa, u holda bu limit (3) yoki (4) sistemaning yechimi bo'ladi. Yaqinlashishlarni ochiq holda quyidagicha yozish mumkin:

$$x_i^{(0)} = \beta_i x_i^{(0)} = \beta_i,$$

$$x_i^{(k+1)} = \beta_i + \sum_{j=1, j \neq i}^n \alpha_{ij} x_j^{(k)}, x_i^{(k+1)} = \beta_i + \sum_{j=1, j \neq i}^n \alpha_{ij} x_j^{(k)}, \quad i = \overline{1, n1, n}$$

$$, k=0,1,2,\dots \quad (5)$$

yechimni taqribiy hisoblashning ana shunday usuli iteratsiya usuli deyiladi. Iteratsiya protsessining yaqinlashuvchi bo'lishini yetarli shartini quyidagicha teoremda keltiramiz:

Teorema: Agar o'zgartirilgan (3) sistemada quyidagi shartlardan

$$1) \sum_{j=1}^n |\alpha_{ij}| < 1 \sum_{j=1}^n |\alpha_{ij}| < 1, \quad i=1,2,\dots,n.$$

$$2) \sum_{i=1}^n |\alpha_{ij}| < 1 \sum_{i=1}^n |\alpha_{ij}| < 1, \quad i=1,2,\dots,n.$$

biri bajarilsa, u holda bu sistema uchun hosil qilingan(5) iteratsiya jarayoni yagona yechimga yaqinlashuvchi bo'ladi, ixtiyoriy boshlang'ich nuqta $x^{(0)}$ uchun.

Vektor ko'rinishidagi (2) sistemani $\det A \neq 0$ bo'lgan holda teorema shartini qanoatlantiradigan sistemaga keltirish mumkin:

$$(A^{-1}-\varepsilon)Ax=Db, D= A^{-1}-\varepsilon; \quad (6)$$

$\varepsilon\varepsilon=[\varepsilon_{ij} \varepsilon_{ij}]$ -yetarli kichik sonlardan iborat bo'lgan matritsa. Yuqoridagi (6) belgilashlardan foydalanib, quyidagini olamiz.

$$x=\beta+\alpha x, \quad (7)$$

bu yerda $\alpha=\varepsilon\varepsilon A$, $\beta=Db$, bo'lib $\varepsilon\varepsilon_{ij}$ lar yetarli kichik qilib olinsa teorema shartlari bajariladi.

Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishda Matlab usullari. chiziqli tenglamalar sistemasini yechish uchun Matlab funksiyalari (usullari) juda ko'p bo'lib, biz ulardan bir nechtasini keltiramiz. Birinchi usul "chapdan bo'lish" usulidir:

- 1) $x=A\backslash B$
- 2) $x=\text{isqnonneg}(A,B)$ - $Ax=B$ chiziqli tenglamalar sistemasini kichik kvadratlar usuli bilan yechadi. Bunda A -($n \times n$) o'lchovli, B -($n \times 1$) o'lchovli, $x_i \geq 0$, $i=1,2,\dots,n$. Minimallashtirish kriteriyasi: $B-Ax$ ning ikkinchi normasini minimallashtirish;
- 3) $x=\text{isqnonneg}(A,B,x_0)$ -Iteratsiyalar uchun chiziqli tenglamalar sistemasining aniq berilgan nomanfiy boshlang'ich qiymatlarda yechib beradi;
- 4) $[x,w]=\text{isqnonneg}(\dots)$ -yechim bilan birga qoldiqlar vektori kvadrati ikkinchi normasini qaytaradi;
- 5) $[x,w,w1]=\text{isqnonneg}(\dots)$ -xuddi avvalgi buyruq kabi, yana qoldiqlar vektori $w1$ ni qaytaradi;
- 6) $\text{bicg}(A,B)$ - $Ax=B$ ning x yechimini qaytaradi; $A(n \times n)$, $B(n \times 1)$. Bunda hisoblash iteratsiyalar yaqinlashguncha yoki $\min\{20,n\}$ gacha bajariladi;
- 7) $\text{bisc}(A,B,\text{tol})$ -yechimni tol xatolik bilan qaytaradi;
- 8) $\text{bisc}(A,B,\text{tol},\text{maxit})$ -avvalgi buyruq kabi, yechimni undan tashqari maxit-maksimal iteratsiyalar soni bilan qaytaradi.

1.Tenglamalar sistemasini chapdan bo'lish 1), iteratsiyalar usuli va Kramer usulida yeching, topilgan yechimlarni solishtiring.

$$\begin{cases} 2x + y + z + t = 8 \\ 3x - y - 2z + t = 2 \\ x + 2y - 3z + 2t = 8 \\ 5x - 2y + 3z - t = 1 \end{cases}$$

```
>> a= [2 1 1 1; 3 -1 -2 1; 1 2 -3 2; 5 -2 3 -1];b=[8;2;8;1];
>> a= [8 1 1 1; 2 -1 -2 1; 8 2 -3 2; 1 -2 3 -1];
>> a2= [2 8 1 1; 3 2 -2 1; 1 8 -3 2; 5 1 3 -1];
>> a1= [8 1 1 1; 2 -1 -2 1; 8 2 -3 2; 1 -2 3 -1];
>> a= [2 1 1 1; 3 -1 -2 1; 1 2 -3 2; 5 -2 3 -1];
>> a3= [2 1 8 1; 3 -1 2 1; 1 2 8 2; 5 -2 1 -1];
>> a4= [2 1 1 8; 3 -1 -2 2; 1 2 -3 8; 5 -2 3 1];
>> x=det(a1)/det(a);
>> y=det(a2)/det(a);
>> z=det(a3)/det(a);
>> t=det(a4)/det(a);
>> %Kramer uculida quyidagi echimni olamiz
>> X=[x y z t]

X =

     1     2     1     3

>> X=a\b

X =

     1.0000
     2.0000
     1.0000
     3.0000

>> %yuqorida o'ngdan bo'lish uculida olingan echim uctun ko'rinishda
>> |
```

Endi xuddi shu tyenglamalar sistemasini iteratsiya usuli bilan yechamiz va natijalarni solishtiramiz.

Yechimni topish uchun quyidagi fayl-funksiyani xosil qilamiz:

```
1 function zz=iter(a,b,x0,eps,n)
2     r1=1;
3     while r1
4         r1=0;
5         for i=1:n
6             x(i)=b(i)/a(i,i);
7             for j=1:n
8                 if j~=i
9                     x(i)=x(i)-a(i,j)*x0(j);
10                end
11            end
12            r1=r1+(abs(x(i)-x0(i)))>=eps;
13        end
14        x0=x;
15    end
16    zz=x0
```

```

>> %yuqorida o'ngdan bo'lish uculida olingan echim ictun ko'rinishda
>> xx=iter(a,b,b,0.00001,4)

x0 =

    -7.0000   -11.0000   -16.6667   -61.0000

x0 =

    92.6667    46.6667   148.3333    62.0000

x0 =

   -253.0000   -45.3333  -312.6667  -816.0000

x0 =

    1.0e+003 *

    1.1780    0.9477    1.9730    2.1113

x0 =

    1.0e+003 *

   -5.0280   -1.7013   -7.2987   -9.9147

```

$A = \begin{bmatrix} 2 & 1 & 1 & 1; & 3 & -1 & -2 & 1; & 1 & 2 & -3 & 2; & 5 & -2 & 3 & -1 \end{bmatrix}$,

$B = \begin{bmatrix} 8; 2; 8; 1 \end{bmatrix}$

yeChIB KO'RSATILISHI KeRAK!

Funksiyalar uchun optimallashtirish masalasining qo'yilishi. Juda ko'p nazariy va amaliy masalalarni xal qilishda bir nechta o'zgaruvchiga bog'liq bo'lgan funksiyalarning ekstremumini (maksimum yoki minimum) topish masalasiga duch kelinadi (masalan, parametrik identifikatsiya masalasida). Bunday funktsiyani umumiy holda $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ ko'rinishida yozib, $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ vektorni kiritsak, u holda $f(x)$ funksiya uchun ekstremumni (ma'lum bir A to'plamda) topish quyidagicha qo'yiladi:

x vektorning berilgan (aniqlangan) A to'plamga tegishli shunday x^* qiymatini topingki, u uchun (maksimum)

$$\max_{x \in A} f(x) = f(x^*) \max_{x \in A} f(x) = f(x^*)$$

tenglik o'rinli bo'lsin. Albatta, bu nuqtada $f(x)$, $x \in A$, funksiya uchun $f(x) \leq f(x^*)$, $x \in A$ tengsizlik o'rinli bo'ladi. Umuman x^* nuqta funktsiyaning maksimum nuqtasi

$f(x^*)$ esa funksiyaning maksimum qiymati deyiladi. Xuddi shunga o'xshash minimum nuqta haqida ham gapirish mumkin. Umuman olganda, maksimum va minimum masalalarini birinchisini ikkinchisiga keltirish mumkin. Masalan, $f(x)$, $x \in A$ funksiyaning maksimumini topish masalasi $g(x) = -f(x)$, $x \in A$ funksiyaning minimumini topishga ekvivalentdir.

Funksiyaning minimumini yoki maksimumini topishni optimallashtirish masalasi deb ataymiz.

Funksiyalar uchun optimallashtirish masalasini yechish usullari.

Matematikada har xil tipdagi funksiyalarni optimallashtirish usullari juda ham ko'p, lekin ularni masalani yechishga talqin qilish bo'yicha ikkita guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga masalani hal qilish uchun qo'llaniladigan bilvosita usullarni kiritish mumkin. Bu holda ko'p o'zgaruvchili funksiyalar uchun x^* nuqtada ekstremum shartining natijasi bo'lgan chiziqli yoki chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechimini topishga keltiriladi. Bizga ma'lumki, ekstremum nuqtada funksiyaning barcha birinchi tartibli xususiy xosilalari nolga teng bo'ladi:

$$\left. \frac{\partial f}{\partial x_i} \right|_{x=x^*} = 0, \quad i=1,2,\dots,n.$$

Shu tenglamalar sistemasini yechib ekstremum bo'lish mumkin bo'lgan nuqta aniqlanadi. Undan tashqari birinchi guruh usullarga urinmalar usulini, vatarlar usulini, Nyuton usulini va boshqalarni kiritish mumkin.

Bu usullarning asosiy kamchiliklariga chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechishdagi murakkabliklar kiradi. Shuning uchun, ko'pincha optimallashtirish masalasini amalda yechish uchun taqribiy usullar qo'llaniladi. Bu holda optimallashtirish masalasini yechish uchun shunday

$x^0, x^1, \dots, x^n, \dots$ vektorlar ketma-ketligi tuziladiki, ular uchun

$$f(x^0) < f(x^1) < \dots < f(x^n) < \dots \quad (f(x^0) > f(x^1) > \dots > f(x^n) > \dots)$$

tengsizlik o'rinli bo'lsin. Natijada, ma'lum qadamdan keyin ekstremum nuqtaning taqribiy qiymati topiladi. Umuman olganda, boshlang'ich nuqta x^0 ixtiyoriy

bo'lishi mumkin, lekin uni tanlashda funksiya va uni ekstremumi haqida barcha ma'lumotlarni ishlatib x_0 ni ekstremum nuqtaga iloji boricha yaqin qilib tanlash maqsadga muvofiqdir.

Optimallashtirish masalasini yechish Matlab funksiyalari. Optimallashtirish masalasini yechish uchun Matlab paketi yadrosidagi va maxsus Optimization kutubxonasidagi (vositalar to'plami) funksiyalardan foydalanish mumkin. Bu funksiyalarni ko'rishdan avval Matlabda ishtirok etuvchi qo'shimcha element – foptions1 massividir. Bu massivda <standart parametrlar> (<параметры по умолчанию>) deb nomlanuvchi va optimizatsiya protiduralarda foydalaniladigan parametrlar saqlanadi. Shu massivning har bir elementini ko'rib chiqamiz.

- options(1)-akslantirish parametrik standart qiymati (po umolchaniyu) 0 ga teng, 1 qo'yilganda ba'zi natijalarni akslantiradi;
- options(2)-x uchun hisoblashlar to'xtatilishining aniqligi; po umolchaniyu $1e-4$;
- options(3)-F uchun hisoblashlar to'xtalishining aniqligi; po umolchaniyu $1e-4$;
- options(4)-chegara buzilishida uzish kriteriysi; po umolchaniyu $1e-6$;
- options(5)-algorithm: strategiya: har doim ham ishlatilavermaydi;
- options(6)-algorithm: Optimizator: Har doim ham ishlatilavermaydi;
- options(7)-algorithm: Chiziqli qidiruv algoritmi; po umolchaniyu 0;
- options(8)-Lyambda funksiyaning qiymati;
- options(9)-Agar foydalanuvchi taklif qilgan gradientlarni tekshirish kerak bo'lsa, bu parametrga 0 qo'yiladi;
- options(10)-funksiya va chegaralarni baholashlar soni;
- options(11)-funksiya gradientini baholashlar soni;
- options(12)-chegaralarni baholashlar soni;
- options(13)-tenglikka qo'yilgan chegaralar soni;
- options(14)-funksiyaning maksimal baholashlar soni;

- options(15)-maqsadli funksiyani maxsus maqsadlar uchun ishlatish;
- options(16)-chekli ayirmali gradientlar uchun o'zgaruvchilarni minimal o'zgarishi;
- options(17)-chekli ayirmali gradientlar uchun o'zgaruvchilarni maksimal o'zgarishi;
- options(18)-qadam uzunligi (po umolchaniyu ≤ 1);

Har xil optimizatsiya jarayonlar uchun bu parametrlardan har xillari ishlatiladi. Shuning uchun konkret optimizatsiya jarayon uchun qanday parametr berilgan bo'lishi va qanday parametr ma'lum natijani qaytarishi alohida aytib o'tishi kerak bo'ladi.

Parametrlar avvaldan aniqlab olingandan so'ng, funksiyani optimallashtirish jarayoniga o'tsa bo'ladi. Matlab yadrosida optimallashtirish masalasini yechish uchun 2 ta funksiya :

fmin-bir o'zgaruvchili funksiyalar uchun ;

fmins-ko'p o'zgaruvchili funksiyalar uchun

mavjuddir. Birinchi funksiya fmin bir nechta formulalarda yoziladi:

- ✓ $x = \text{fmin}('fun', x1, x2);$
- ✓ $x = \text{fmin}('fun', x1, x2, \text{options});$
- ✓ $x = \text{fmin}('fun', x1, x2, \text{options}, p1, p2);$
- ✓ $x = \text{fmin}('fun', x1, x2, \text{options}, p1, p2, \dots);$
- ✓ $[x, \text{options}] = \text{fmin}(\dots)$

Birinchi ko'rinishdagi $x = \text{fmin}('fun', x1, x2)$ Matlab funksiyasi $\text{fun}(x)$ funksiyaning $x1 < x < x2$ oraliqdagi minimumga erishtiruvchi x ning qiymatini aniqlaydi;

$x = \text{fmin}('fun', x1, x2, \text{options})$ -funksiyasi esa xuddi yuqoridagidek vazifani bajarib, unda qo'shimcha boshqarish parametrlarini ishlatadi;

$x = \text{fmin}('fun', x1, x2, \text{options}, p1, p2, \dots)$ -funksiya ham yuqoridagidek vazifani bajaradi, lekin bunda $\text{fun}(x)$ funksiyaga parametrlar sifatida $p1, p2, \dots$, larning qiymatlarini kiritadi, natijada $\text{fun}(x, p1, p2, \dots)$ funksiya olinadi.

[x,options]=fmin(...)-funksiya options(10) parametrda bajarilgan qadamlar sonini chiqaradi. Yuqoridagi funksiyalarda options boshqarish parametrlari vektori bo'lib 18 ta komponentdan faqat uchtasigina ishlatiladi;

- options(1)-agar 0 bo'lmasa, masala yechilishidagi qadamlarni ko'rsatadi. Po umolchaniyu-0;
- options(2)-hisoblashlarni to'xtatish aniqligi. Po umolchaniyu 1e-4;
- options(14)-qadamlarning maksimal soni. Po umolchaniyu (berilmasa-500);

Ko'p o'zgaruvchili funksiyalar uchun yaratilgan fmins funksiya ham bir nechta formatlarga ega:

- ✓ $x=fmin('fun',x0)$
- ✓ $x=fmin('fun',x0,options)$
- ✓ $x=fmin('fun',x0,options,[],p1,p2,...)$
- ✓ $[x,options]=fmins(...)$

$x=fmin('fun',x0)$ -bu funksiya $fun(x)$ funksiyaning $x0$ nuqta atrofidagi lokal minimumga qiymatini beruvchi x vektorni chaqiradi.

$x=fmin('fun',x0,options)$ -xuddi yuqoridagi funksiya kabi vazifani bajarib, undan farqi qo'shimcha boshqarish parametrlaridan foydalaniladi.

$x=fmin('fun',x0,options,[],p1,p2,...)$ -bu ham xuddi yuqoridagidek vazifani bajarib, bunda $fun(x)$ funksiyaga parametrlar sifatida $p1,p2,...$ larning qiymatlarini kiritadi, natijada $fun(x,p1,p2,...)$ funksiya olinadi.

$[x,options]=fmins(...)$ -bu komanda formatida options(10) parametrda bajarilgan qadamlar sonini chiqaradi;

fmin funksiya argumentlari:

xo-boshlang'ich vektor;

$p1,p2,...$,- fun funksiyaga beriladigan argumenlar.

[]- Opimization kutubxonasidagi fminu funksiya bilan birgalikdalikni ta'minlovchi argument;

- ❖ options(1)-agar bu parameter nolga teng bo'lmasa yechish protsessidagi oraliq qadamlar ko'rsatiladi. Aytilmasa 0 bo'ladi;
- ❖ options(2) va option(3)-hisoblashlarnit o'xtatish aniqligi (x va function(x) uchun). Aytilmagan bo'lsa ikkala qiymat $1e-4$;
- ❖ options(14)-qadamlarning maksimal soni. Aytilmasa -500;

Optimization kutubxonasining imkoniyatlari. Misollar. Optimization kutubxonasida chiziqli va chiziqli bo'lmagan funksiyalarni optimallashtirishga mo'ljallangan bo'lib, bu kutubxona quyidagi xossalarga ega:

- chiziqli bo'lmagan funksiyalarni shartsiz optimallashtirish;
- kichik kvadratlar usuli va chiziqli bo'lmagan interpolyasiya;
- chiziqli bo'lmagan tenglamalar yechimi;
- chiziqli dasturlash;
- kvadratik dasturlash;
- chiziqli bo'lmagan funksiyalarni shartli minimizatsiya qilish;
- minimaks usuli;
- ko'p kriteriyli optimallashtirish;

Bu kutubxonada quyidagi algoritmlar ishlatiladi:

- shartsiz optimallashtirish: Nelder-Mid simpleks qidiruv usuli;
- shartli ko'p kriteriyli optimallashtirish va minimaks usuli: ketma-ket kvadratik dasturlash usulining har xil variantlari;
- chiziqli va kvadratik dasturlash usullari: proeksiyalar usuli;
- optimallashtirish usuli va chiziqli qidiruv strategiyasini tanlash imkoniyati borligi.

Undan tashqari, kutubxonada bitta masalani bir nechta usullar yordamida yechish mumkinligini ko'rsatuvchi misollar ham mavjuddir.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida olib borilayotgan tadbirlarning asosiy maqsadi – ta'lim tizimi islohatlarini hayotga tatbiq etish, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarni intellektual, ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.


Ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan birgalikda olib borish, hozirgi tezlanish bilan rivojlanayotgan texnika asrida dolzarb muammolardandir.

Ishlab chiqarishning kompyuter texnikasi bilan boshqarish rivojlanish tendensiyasini tezlik parametridan tezlanish parametriga aylantirib yubordi. Har bir ishlab chiqarish tashkiloti o'z faoliyatini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaydi. Bu esa davr talabining ajralmas qismidir.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.R.YUsupbekov, B.I.Muhamedov, SH.M. Gʻulomov. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari: Texnika oliy oʻquv yurtlari uchun darslik, - T.: “Oʻqituvchi”, 1997, 704 b.
2. N.R.YUsupbekov, X.Z.Igamberdiev, A. Malikov. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari, T.: ToshDTU, 2007,-237 b.
3. A.A.Artikov, A.K.Musaev, I.I.YUnusov Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimi: Oʻquv qoʻllanma, T.: TKTI, 2002y.
4. MATLAB 7.*/R2006/R2007 oʻquv qoʻllanma.:M.2008.
5. Mathyemtica. Wolfram, Stephyen, 1959.
6. Dyakonov V. P., Kruglov V. V. MATLAB 6.5 SP1 7/7 SP1/7 SP2 +5/6Simulin Insrumenty iskussvennogo intellekta i bioinformatiki. – M.: Solon_PReSS, 2006 .
7. Dyakonov V. P. VisSim+Mathcad+MATLAB. Vizualnoe matematicheskoe modelirovanie. – M.: Solon_Press, 2004.
8. Potemkin V. G. Sitsema MATLAB: Spravochnoe posobie. – M.: Dialog_MIFI, 1997.
- 9.T.Dadajonov, M.Muhitdinov MATLAB asoslari.-T.”Fan” nashriyoti.2008.
10. <http://www.mathworks.com/access/helpdesk/help/helpdesk.html>.
11. <http://www.lephanpublishing.com/MatlabCsharp.html>



ILOVALAR



Optimallashtirish jarayoni



O'z-o'zini optimallashtiruvchi tizim



Ishlab chiqarish jarayonida optimallashtirish